

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat
va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik
jihatdan tartibga solish agentligining
“ 3 ” iyul 2023 yildagi
108k - son buyrug‘iga
19-ILOVA**

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi xo‘jalik ishlari bo‘yicha
bosh mutaxassisining lavozim yo‘riqnomasi**

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu yo‘riqnoma O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb ataladi) xo‘jalik ishlari bo‘yicha bosh mutaxassisiga (keyingi o‘rinlarda — “bosh mutaxassis” deb ataladi) qo‘yiladigan talablarni, uning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Bosh mutaxassis o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining nizomi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Bosh direktorining buyruqlariga, mazkur yo‘riqnomaga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Bosh mutaxassis lavozimiga shunga o‘xshash lavozimda kamida bir yillik ish stajiga ega bo‘lgan oliy ma‘lumotli shaxs tayinlanadi.

4. Bosh mutaxassis Agentlik bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

5. Bosh mutaxassis bevosita Agentlik bosh direktoriga bo‘ysunadi.

2. Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bosh mutaxassis faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

- agentlikning xo‘jalik ishlari faoliyatini boshqarish;
- agentlik binosidagi anjomlarni but saqlanishi, mo‘ljallanishi bo‘yicha ishlatilishi va xizmat ko‘rsatilishi, shuningdek sarflanadigan materiallar, boshqa turdagi inventar nomenklaturani to‘ldirilishi ustidan nazorat qilish;
- xonalarda, agentlik hududida sanitar va gigienik me‘yorlarni ta‘minlash, shuningdek xonalarning holati va ta‘mirlanishi bo‘yicha choralar ko‘rish;
- korxonada tasarrufida bo‘lgan bino xonalaridan foydalanish tartibi, normalari va qoidalarini bilishi kerak;
- korxonada tasarrufida bo‘lgan avtomobillardan foydalanish tartibi, normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

- agentlik xodimlariga ish jarayonida zarur sharoitlarni yaratish, xonalarni kerakli mebellar, anjomlar, ofis mexanizmlari va apparatlari bilan ta'minlash, shuningdek kanselyariya buyumlar va sarflanadigan materiallarni doimiy mavjudligini ta'minlash.
- tegishli forma bo'yicha inventarizatsiyani komissiya a'zolari bilan birgalikda o'tkazish.
- agentlikning texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining ish vazifalarini belgilash va bajarilishi yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish.

8. Bosh mutaxassisga ushbu yo'riqnoma yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3. Bosh mutaxassisning huquqlari va majburiyatlari

9. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

- Rahbariyatning ruxsatiga ko'ra o'zining xizmat majburiyatlarini bajarish uchun kerakli bo'lgan hujjatlarni so'rash va olish.
- Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni rag'batlantirish yoki jazo qo'llash bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish.
- Bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Bosh mutaxassis:

- unga ushbu yo'riqnoma va boshqa qonun hujjatlari bilan yuklangan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarishi;
- belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tishi shart.
- bosh mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4. Bosh mutaxassisning javobgarligi

11. Bosh mutaxassis o'zi viza qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javobgar.

12. Bosh mutaxassis o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Yo'riqnoma bilan tanishdim: